International Conference on
Linguistics, Literature And Translation

International Conference on Linguistics, Literature And Translation - double-blind peer-reviewed, monthly, open-access procedding published to get ecxellence on Research and Development. It publishes high-quality articles across the breadth of linguistics, literature and translation research. With its uniquely broad coverage, all articles are free to access across the globe, allowing authors to share their research and maximise its impact. The boletin on Linguistics, Literature And Translation is led by expert international editorial board members who take an objective approach to peer review, ensuring each research paper is reviewed and evaluated on its own scholarly merits and research integrity. Joining your work in the International Conference of Linguistics, Literature, and Translation means you will receive prompt and reliable publishing and a global platform for your research to reach its full potential.

OMON MATJON LIRO-EPIK VA DRAMATIK ASARLARIDA FRAZEOLOGIZMLAR

Otajonova Rayxon Zokir qizi

Ma'lumki, o'zbek tilshunosligida Sh.Rahmatullayev o'z tadqiqotlarida frazeologizmlarning ma'no xususiyatlarini yoritgan, o'zbek tilidagi frazeologik birliklarning izohli lug'atini nashr qildirgan. Olim tomonidan tuzilgan ushbu lug'at qisqacha lug'at bo'lgani uchun tildagi barcha frazeologizmlarni qamrab olmagan. Turkiyshunoslikda, jumladan, o'zbek tilshunosligida ham frazeologizmlar Sh.Rahmatullayev, I.Qo'chqortoyev, A.Mamatov, B.Yo'ldoshev kabi olimlar tomonidan atroflicha tadqiq etilgan. Albatta, bu tadqiqotlar frazeologiya sohasida erishilgan muvaffaqiyatlardir [3.:37].

Bugungi kunda Xorazm shevalari va boshqa hudud shevalaridagi frazeologizmlar, ularning badiiy asarlar tilida qo'llanilishi kabi jihatlar bo'yicha lug'at tuzish ehtiyoji mavjudligi yuzasidan tadqiqotlarda tilga olib o'tilgan [1.:78]. Omon Matjon asarlari tilida qo'llanilgan frazeologizmlarni tadqiq qilish shunday ehtiyojlarni to'ldirishga hissa bo'lib qo'shilishini nazarda tutib, quyida shoir tomonidan qo'llangan ayrim iboralarni tahlilga tortamiz.

Yozuvchining "Cho'ldagilar" doston xronikasida "safari qarimoq" iborasi quyidagi parchada ishlatilgan: "Shu kuni kechqurun mehmonlarning ham safari qarir". Ushbu ibora xalq orasida juda keng istemolda. Ya'ni biron joyga safar qilib, safar yakuni shunday ibora ishlatiladi, ya'ni qaytishning anglatadi. Shoir ushbu iboradan juda o'rinli foydalana olgan.

Yana ushbu asarda berilgan "bir palakda har xil xomak" frazeologizmi kishini o'yga toldiradi. Hikoyada muallif tilidan "bir palakda har xil xomak deganlari" deb keltirilgan bo'lib, ya'ni bitta ota-onadan har xil farzand dunyoga kelishiga ishora qilmoqda.

Yana ushbu asarda bir o'rinda ikkita iborani kuzatdik: "… Ismoiljon kirakashlik havosini ancha-muncha oldi. So'ng-so'ng pulga ancha o'rganib mukkasidan shinnikib ham ketdi". Ushbu hikoyadan olingan parchada "havosini olmoq", "mukkasidan shinnikib ketmoq" iborali o'rinli ishlatilgan bo'lib, havosini olmoq kim? nimaning? malaka oshirib, mohir ustasi bo'lmoq [2.:185] ma'nolarini anglatadi. Yoki parchadagi "mukkasidan shinnikib ketmoq" iborasi mukka(si) bilan tushib ketmoq kim?[o'zining] nimaga? o'zini tiya olmaslik darajada berilib ketmoq iborasi bilan sinonimlik kasb etadi. Varianti: mukka tushmoq kim? nimaga? Sinonimi: mukka(si)- dan ketmoq kim?[o'zining] nimaga?[2.:185]

Xuddi shu asarda "Ana shunda odamlarday yeyilib-yozilib yashaydi" parchasida "yeyilib-yozilib yashamoq" iborasi kuzatildi. Ma'lumki, ushbu ibora emin-erkin, bemalol yashamoq ma'nosini anglatadi. Shuningdek, "Ardaxiva" dramatik qissasida "oyoq yuzi yarashib…", "baxti bor bo'lmoq" kabi iboralarni kuzatdik. Xalq orasida oyoq-yuzi yarashmoq iborasi, kimnidir kelgani yaxshilik olib kelsa ishlatiladi.

Darhaqiqat, shoir o'zi yaratayotgan qahramonning o'ziga xos xarakter-xususiyatlarini ochib berish jarayonida, tabiatan qanday shaxs ekanligini to'liqroq tasvirlashda iboralardan foydalanadi. Omon Matjon ham asarlarining bir qancha o'rinlarida qahramonlarning oiladagi, jamoadagi va ba'zan ko'cha-ko'ydagi yurish-turishini, ijobiy va salbiy tomonlarini bo'rttiribroq, ayniqsa, kulgiga moyilroq qilib aks ettirish maqsadida qo'llagan. Ayniqsa, shoir insonning tana a'zolari bilan bog'liq bo'lgan iboralarni qo'llab, yuqori saviyadagi hikoyalarni yaratishga muvaffaq bo'lgan. Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, insonning tana a'zolari bilan bog'liq bo'lgan iboralar hayotda juda ko'p qo'llaniladi. Bunday birikmalarni badiiy asar tarkibiga qay yo'sinda kiritish esa, yozuvchining so'z qo'llash mahoratiga bog'liq. Shu tariqa xalq iboralari sayqallanib, yangi ma'no

nozikliklari bilan to‘yinib boradi. Xalq iboralarini qayta ishlashning usullari, ularga yangicha rang va tus, yangicha ma’no talqini berishning yo‘llari juda xilma-xildir. Frazeologik iboralarni qayta ishlashning turli usullarini tilshunos olim B.Yo‘ldoshev keng tadqiq qilgan. Iboraning semantik tarkibida frazeologik ma’nodan tashqari, uslubiy bo‘yoq ham mavjud bo‘ladi. Salbiy yoki ijobiy baho semalari, odatda iboralarning mazmun planida bo‘rtib turadi, bu omil iboralardan nutqiy ta’sirchanlikni ta’minlovchi uslubiy vosita sifatida foydalanish imkonini beradi, ayniqsa, badiiy asar tilida bunday birliklarning roli katta bo‘ladi. Ma’lumki, frazeologizm lug‘aviy birlik bo‘lganligidan u nutq jarayonida gap tarkibida kelganda bir mustaqil so‘z, so‘z birikmasi, gap tarzida harakat qiladi. Shu boisdan, agar yozuvchi asarlarida ko‘zi ilindi, yuragim taka-puka bo‘lib kirsam,ko‘zi pishib ketgan, og‘zingga qarab gapir kabi iboralarning o‘rnida uxlamoq,hayajonlanmoq, o‘ylab gapirmoq kabi jumlalarni qo‘llamaganida edi, hikoyalarning badiiy estetik qimmati bunchalik oshmagan bo‘lar edi. Va yozuvchi o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga ham yeta olmagan bo‘lar edi.

Dostonlardagi “Yuz o‘girmoq” frazeologizmi omonim bo‘lib, I. – boshini burib qaramoq; II. “qaramaslik uchun boshini boshqa tomonga burmoq, – aloqani uzmoq, –muomalada bo‘lishni istamaslik [4.: 266] ma’nolarini ifodalaydi. Yuqoridagi hikoyada mazmunni kuchaytirish uchun ikki marta qo‘llanganligini guvohi bo‘ldik.

-Ilhom, samovaringni tagiga tosh bog‘laganmisan, nima balo?! Bermasning oshi pishmas deb! Bu ibora o‘z zamirida baxillik va saxiylik g‘oyasini ifodalaydi. Baxil odam o‘z nafsoniyati bilan o‘z hayotini og‘irlashtirishi, rizqi pishmasligi osh pishmasligiga ,ya’ni qorni to‘ymasligiga ishora vazifasini bajarmoqda.

Frazeologizmlarda ba’zan kinoya ma’nosi ham ifodalanishi mumkin. Bunday holatlar yozuvchi yozuvchining dostonlaridan olingan frazeologizmlarning qo‘llanishida seziladi. “Sherbilak bilan Sherqo‘zi qishloqlariga boshqa sayyoralardan vakillar qadam ranjida qilishmagan bo‘lishsa-da, rayondanmi yo boshqa joydanmi komissiya kelib, ko‘ngillarni xushnud qilib turibdi”. Misolda qo‘llanilgan “ko‘ngillarni xushnud qilib turmoq” birikmasi aslida xursandlik ma’nosini emas, balki norozilik semasini ifodalamoqda. Shuni yodda tutish kerakki, frazeologizm qanday matn tarkibida kelsa, shu matndan uning qanday maqsadda qo‘llanilganini anglash mumkin. Shuni inobatga olish lozimki, satira va yumor hosil qilish ko‘pgina iboralarning ichki tabiati bilan bog‘liq, chunki bir qancha iboralarning semantik tarkibida hazil, mazax, kesatiq: piching singari semalar mavjud bo‘ladi. Quyidagi parchada qo‘llanilgan “teshilgan pufak holiga tushmoq” iborasida aynan shu holat kuzatiladi:

Xotining keta turib shunaqa dedi. “Erim erkak emas ekan, endi bitta erkak topib: tegaman”, dedi. Xotining naq o‘g‘il bolaning gapini aytdi, otasiga rahmat!

-Cho‘pchak to‘qivordingiz, rais tog‘a. Mening xotinim unaqa demaydi.

- Aldayapti, desang, bor, boraver. Qaynotangnikida yo‘q bo‘lsa, ishonasanmi, gapimga?

Bu gapdan keyin Sobitali teshilgan pufak holiga tushdi.

Matndan ichkilikka berilgan erkakning xotini uydan ketib qolgandan keyingi holati qisqa va aniq, obrazli tarzda o‘z ifodasini topganki, frazeologizmdan anglashilgan ma’no matnning hajviy uslubi bilan uyg‘unlashib ketganligini sezish quyin emas.

Umuman, Omon Matjon ijodida frazeologizmlar oddiy so‘zlarga nisbatan voqelikni ta’sirchan, obrazli ifodalashga qulayligi uchun asar tilini jonli tarzda voqelantirishda muhim vosita sifatida qo‘llanadi. Shoir tilimizda mavjud frazeologizmlarni adabiy tilda mavjud bo‘lmagan shakllarda qo‘llaydi. Bu esa yozuvchi tilining xalqona, soda ekanligini yana bir karra isbotlaydi. Omon Matjon tasvirga muvofiq iboralarni qo‘llash bilangina kifoyalanmagan. Balki asar qahramonlarining tabiati, hayot tarzi, fe’l -atvori, ruhiy holati barchasini hisobga olgan holda qo‘llagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Allaberganova D.A. Omon Matjon she’riyati lingvopoetikasi: filol.fan. falsafa dok. (Doctor of Philosophy) diss. – Urganch, 2024. – B. 78.
2. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2022. – B.185.
3. Йўлдошев Б. Ўзбек тилида фразеологизмларнинг услубий ва прагматик имкониятлари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2002. – Б. 37.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг қисқача фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1964. –Б.266.